UO‘K 81.33

YASHIRIN INTENSIYALARNI LISONIY IFODALASH USULLARI VA ULARNING TIPOLOGIYASI

(*ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar misolida***)**

B.R. Ahmedov

Maqolada ijtimoiy tarmoq xabarlaridagi yashirin kommunikativ intensiyalar tahlil qilingan. Yashirin intensiyalarning asosiy turlari – tuhmat, tahdid, diskreditatsiya va manipulyatsiyani lingvistik ifodalash usullari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari zararli onlayn muloqot shakllarini aniqlash, media savodxonligini oshirish, foydalanuvchilarga ko‘rsatiladigan hissiy ta’sir va manipulyativ usullarning mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *yashirin intensiya, virtual muhit, nutqiy akt, implikatura, diskreditatsiya, tahdid, chorlov, manipulyatsiya.*

В статье анализируются скрытые коммуникативные намерения в сообщениях социальных сетей, выявляются их основные типы: клевета, угроза, дискредитация и манипуляция. Рассматриваются понятие скрытого намерения, его коммуникативные особенности и способы языкового выражения. Результаты исследования имеют значение для выявления потенциально опасных сообщений, повышения медиаграмотности пользователей, а также понимания механизмов эмоционального воздействия и речевой манипуляции в виртуальной среде.

Ключевые слова: *скрытое намерение, виртуальная среда, речевой акт, импликатура, дискредитация, угроза, вызов, манипуляция.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda onlayn muloqot odamlar o‘rtasidagi eng keng tarqalgan o‘zaro ta’sir shakllaridan biriga aylandi va u nafaqat axborot almashish vositasi, balki murakkab pragmatik va kommunikativ jarayonlar sohasi sifatida ham shakllana boshladi. Virtual muhitda muloqotning o‘ziga xos xususiyati shundaki, suhbatdosh ko‘pincha o‘z niyatlarini bilvosita, lekin yashirin ravishda turli verbal va noverbal vositalar, jumladan, kinoya, metafora, emoji, tinish belgilari hamda xabarlarga javob bermaslik yoki javobni kechiktirish orqali ifodalaydi. Shuning uchun “yashirin intensiya” tushunchasini va uning onlayn muloqotda namoyon bo‘lish usullarini o‘rganish zamonaviy pragmatika va matn lingvistikasida dolzarb masala hisoblanadi.

Nutqiy intensiya va uning yashirin ifodalanish usullari tilshunoslikda yangi hodisa emas. Bu sohaning nazariy asoslari J.Ostin [1]ning nutqiy akt nazariyasida va J.Searle [2]ning bilvosita nutqiy aktlar haqidagi ta’limotida shakllangan. G.P.Grays [3] so‘zlovchi aytmoqchi bo‘lgan, lekin bevosita ifodalamagan mazmunni tahlil qilishning metodologik asosini yaratdi. D.Sperber va D.Uilson [4] esa yashirin mazmunni qabul qiluvchi tomonidan qanday tiklanishini kognitiv nuqtayi nazardan izohlab berdi.

O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistik yo‘nalishning shakllanishi va rivojlanishida Sh.Safarovning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Olimning “Pragmalingvistika” [5] nomli monografiyasida nutqiy akt, presuppozitsiya, implikatura kabi kategoriyalar o‘zbek tili materiali asosida tizimli tarzda tahlil qilingan. So‘nggi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham ko‘payib bormoqda. Xususan, D.Kristal o‘zining “Til va internet” [6] nomli ilmiy tadqiqotida raqamli muloqotning o‘ziga xos hodisa ekanini, virtual nutqning yangi janr sifatida shakllanayotganini qayd etgan. O‘zbek tilshunosligida esa B.Isroilova [7], M.Madaminova [8] kabi tadqiqotchilarning ishlari internet va ijtimoiy tarmoqlar tilining fonetik, leksik-grafik xususiyatlari, sintaktik o‘ziga xosligi, emojilar va imlo me’yorlaridagi o‘zgarishlarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, onlayn muloqotda qo‘llaniladigan yashirin intensiya-

larning keng qamrovli tipologiyasi, ularning kontekst bo‘yicha farqlanishi, ushbu niyatlarni ifodalovchi verbal va noverbal vositalarning keng qamrovli tasnifi hali alohida tadqiqot obyekti sifatida chuqur o‘rganilmagan. Ushbu holat mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

Bundan tashqari, ushbu ishning amaliy va lingvistik ekspertiza yo‘nalishini hisobga olgan holda, aniqlanishi kerak bo‘lgan yashirin niyatlarni nafaqat umumiy nazariy pragmalingvistik tasniflash nuqtayi nazaridan, balki huquqiy ahamiyatga ega to‘rtta soha: chorlov, tahdid, diskreditatsiya va manipulyatsiya nuqtayi nazaridan ham guruhlash kerak, chunki bu to‘rtta toifa sud-lingvistik ekspertizasida keng tarqalgan bo‘lib, huquqiy baholashni talab qiladi.

MATERIAL VA USULLAR

Mazkur tadqiqot uchun material sifatida 2023–2026-yillar oralig‘ida yaratilgan, o‘zbek tilidagi internet muloqoti namunalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi (“Telegram”, “Instagram”, “Facebook”) foydalanuvchi postlari, ularga yozilgan izohlar, shaxsiy va guruhli messenjer yozishmalari hamda onlayn forum va muhokama platformalaridagi matnlar tanlab olindi. Material tanlashda quyidagi mezonlarga alohida e’tibor qaratildi:

– matnning tabiiy, spontan muloqot sharoitida yaratilganligi (ya’ni, ilmiy yoki rasmiy uslubda emas, kundalik norasmiy muloqotda namoyon bo‘lishi);

– matnda kontekstual ma’lumot (oldingi xabar, javob zanjiri, muloqot ishtirokchilari haqidagi ma’lumot) mavjudligi yashirin intensiyani to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi;

– matnning yashirin mazmun mavjudligi bo‘yicha aniq belgilarga ega ekanligi.

Material yig‘ish jarayonida foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari (ism, profil, aloqador shaxslar) tadqiqot etikasi nuqtayi nazaridan anonimlashtirildi, faqat lisoniy tahlil uchun zarur bo‘lgan matn qismlari saqlab qolindi.

Tanlangan materialni tahlil qilishda quyidagi usullar qo‘llanildi: pragmalingvistik tahlil matnning aniq (yuzaki) mazmuni va yashirin mazmuni o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash; kontekstual-vaziyat tahlili kommunikativ vaziyatni, ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlarni va janr xususiyatlarini hisobga olgan holda, bir xil lingvistik shakl asosida yotgan turli niyatlarni farqlash imkonini berdi; diskurs tahlili verbal va noverbal (grafik) vositalarning o‘zaro ta’siri asosida matnni yaxlit holda o‘rganishga xizmat qildi; qiyosiy-tipologik usul aniqlangan niyat turlarini taqqoslash, ularning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va shu asosda yaxlit tipologik modelni yaratish uchun qo‘llanildi.

Tahlil davomida avval matnning to‘g‘ridan to‘g‘ri (denotativ) mazmuni aniqlandi, keyin kontekstga asoslanib, so‘zlovchining haqiqiy kommunikativ maqsadi aniqlandi, bu niyatni ifodalash uchun maxsus lingvistik yoki grafik vositalar tanlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nutqiy akt nazariyasining asoschisi hisoblangan J.Ostin fikricha, “so‘zlovchi har qanday gapni aytganda, aslida bir vaqtning o‘zida uchta harakatni amalga oshiradi” [1. B. 103]. Bu umumiy nazariy tamoyil bo‘lib, u yashirin intensiyaga aloqador emas, balki har qanday gapga taalluqlidir:

Birinchisi – lokutiv akt. Bu gapning o‘zi, uning tovush tuzilishi, grammatikasi va so‘zma-so‘z (lug‘aviy) mazmunidir. Masalan, “Eshikni yoping” degan gapning lokutiv mazmuni – shunchaki shu so‘zlarning o‘zi va ularning grammatik ma’nosi.

Ikkinchisi – illokutiv akt. Bu so‘zlovchining nutqiy ifoda orqali muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan harakatidir. Bunda so‘zlovchi buyruq berish, iltimos qilish, va’da berish, ogohlantirish kabi nutqiy vazifalarni bajaradi. Masalan, “Eshikni yoping” gapida so‘zlovchi adresatni muayyan harakatni bajarishga undash maqsadini ifodalaydi.

Uchinchisi – perlokutiv akt. Bu nutqiy ifodaning tinglovchiga ko‘rsatgan ta’siri hamda uning natijasida yuzaga keladigan xatti-harakat, ruhiy holat yoki munosabat o‘zgarishidir. Masalan, “Eshikni yoping” degan murojaat natijasida tinglovchi eshikni yopishi, so‘zlovchining talabiga e’tiroz bildirishi yoki undan norozi bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilshunosligida bu uch bosqichli model Sh.Safarov va M.Hakimov tomonidan o‘zbek tili misollari asosida chuqur yoritilgan va nutqiy akt nazariyasining nazariy poydevori sifatida qabul qilingan [5]. “Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmalingvistlar e’tirof etishadi. Ularning ko‘pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdorlaridir” [9. B. 614]. Shu jihatdan nutqiy aktni uch bosqichli faoliyat sifatida o‘rganish uning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Demak,

nutqiy akt tahlilida lisoniy birliklar bilan bir qatorda, ularning qo‘llanilish sharoiti va kommunikativ ta’sirini ham hisobga olish muhimdir.

Yuqorida keltirilgan nazariy asoslarga tayanib, bizning tadqiqotimiz quyidagi savolni o‘rtaga qo‘yadi: agar bu nutqiy aktlar (lokativ, illokativ, perlokativ) har qanday nutqda muqarrar ravishda mavjud bo‘lsa, unda bu uch bosqichning qaysi birida yashirin intensiya shakllanadi va u qanday mexanizm orqali amalga oshiriladi? Yashirin intensiyaning lingvopragmatik mohiyati alohida, mustaqil harakat sifatida emas, balki so‘zlovchi tomonidan lokativ va illokativ harakatlar o‘rtasida ongli ravishda yaratilgan pragmatik farq sifatida namoyon bo‘ladi. Bu farq, o‘z navbatida, o‘zining yakuniy pragmatik natijasiga perlokativ bosqichda, ya’ni tinglovchining bu nomuvofiqlikni anglashi va kontekstga asoslangan yashirin intensiyani qayta tiklashi orqali erishiladi. Shu asosda ushbu tadqiqotda taklif qilingan yashirin intensiyalar tipologiyasi ushbu uchta harakatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi orqali shakllangan tizim sifatida talqin qilinadi.

Jahon tilshunosligida nutqiy intensiya va uning tiplarini tasniflashga qaratilgan bir necha yondashuvlar mavjud. Ulardan eng ko‘p tilga olinadigani J.Searlening nutqiy akt tipologiyasi bo‘lib, unda barcha nutqiy aktlar illokutiv maqsadga ko‘ra beshta turga ajratiladi: reprezentativlar (bayonot, tasdiq), direktivlar (buyruq, iltimos), komissivlar (va’da, qasam), ekspressivlar (uzr, minnatdorchilik) va deklarativlar (e’lon, tayinlash) [10. B. 5–6]. Mazkur tasnif nutqiy aktlarni so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va amalga oshirilayotgan nutqiy harakatning funksional xususiyatlariga ko‘ra farqlashga asoslanadi. Shu jihatdan u muloqotning og‘zaki va yozma shaklda, bevosita yoxud raqamli aloqa vositalari orqali amalga oshirilishidan qat’i nazar, universal nazariy ahamiyatga ega.

Tahlil qilingan til materiallari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan (“Facebook”, “Telegram”) to‘plangan foydalanuvchi sharhlari hamda tipologik modelni to‘liqroq yoritish uchun tuzilgan misollar asosida internet muloqotida namoyon bo‘ladigan yashirin intensiyalarning oltita asosiy turi aniqlandi.

1. Kinoyaviy (ironik) intensiya. Bu turdagi intensiyada so‘zlovchi aytilgan gapning aynan teskarisini nazarda tutadi. Ushbu tur tahlil natijalarida eng ko‘p va eng xilma-xil ko‘rinishda uchradi, shu sababli uni to‘rtta kichik ko‘rinishga ajratish maqsadga muvofiq topildi.

a) sabab va natija munosabatining ifodalanishi:

“Facebook”da “Kun.uz” sahifasidagi 2025-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekistonda doimiy aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 75,4 yoshni tashkil etgani va ayollarning erkaklarga nisbatan 4,4 yil uzoqroq umr ko‘rishi haqida Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari keltirilgan post ostidagi sharh:

“Avval shunaqa xabar chiqarib pensiya yoshini oshiradi, ko‘rasizlar. 😡”

Bu misolda so‘zlovchi rasmiy statistik xabarni keltirib, undan norasmiy, dalilsiz xulosa (“pensiya yoshi oshiriladi”) chiqaradi. Yashirin intensiya hukumat siyosatiga nisbatan ishonchsizlik va oldindan tanqid (“oshiradi” – kim ekani aytilmagan), ijtimoiy tasdiqqa chaqiruvchi “ko‘rasizlar” shakli va jahl emojisi (😡) orqali ifodalanadi.

b) elliptik konstruksiyalar va metonimik ko‘chimlar orqali ifodalanishi:

“Telegram”da “Troll.uz” kanalidagi “Eldor Shomurodovning FIFA Jahon chempionati debyutidagi Kongo (COD) darvozasiga urilgan goli onlayn ovoz berish natijalari bo‘yicha turnirning eng chiroyli goli deb topilgan”i haqidagi post ostidagi sharh:

“Open byudjet ta’siri”.

Ushbu sharh – tahlil qilingan misollar orasida eng yuqori implikaturaga ega namuna. “Open byudjet” atamasi o‘z ma’nosidan uzoqlashib, “ovoz to‘plash amaliyotiga o‘rganib qolgan xalq” degan stereotipga asoslangan xulosani metonimik tarzda ifodalaydi. Bu guruh a’zolarining o‘z jamoasiga nisbatan istehzoli munosabatining ko‘rinishi bo‘lib, individual yoki tashqi obyektga emas, balki so‘zlovchining o‘zi ham mansub bo‘lgan “biz”ga qaratilgan.

c) umumlashtirilgan ayblovning ifodalanishi:

“Facebook”, “Troll.uz” sahifasidagi post: *“Toshkent viloyatida 5 kishi (erkak, ayol va 3 nafar bolalar) o‘z uyida o‘ldirilib, uyi yoqib yuborilganligi haqidagi dahshatli xabarni o‘qigan bo‘lsangiz kerak. Menda bor ma’lumotga ko‘ra qotil online qimorda qarzga botgan. 30000 dollar atrofidagi qarzi sababli og‘irlik va qotillikka qo‘l urdi. O‘ldirilgan erkak o‘zining o‘rtog‘i bo‘lgan. Bu bizga ma’lum bo‘lgan birgina holat. Qimorda qarzga botib o‘z joniga qasd qilganlar nechta... Biz esa qimorni legallashtirmoqchimiz. Qotillik va o‘g‘riliklar karrasiga oshib ketadi”.* Ushbu post ostidagi sharh (1-foydalanuvchi):

“Tubanlikni eng tubiga olib ketishmoqchi o‘zbek millatini”.

Bu misolda fe’lning grammatik subyekti umumlashtirilgan (“olib ketishmoqchi”), bu esa implikaturaning kengayishiga va o‘quvchining kontekst asosida subyektni o‘zi tiklashiga olib keladi. Holatni kuchaytirish (“tubanlikni eng tubiga”) va yumshatuvchi so‘zlarning yo‘qligi ayblovni yanada oshiradi.

d) ritorik so‘roq shaklida ifodalanishi:

Xuddi shu post ostidagi sharh (2-foydalanuvchi):

“Balki maqsad shudir? Xalqda qo‘rquv bo‘lsa boshqarish oson bo‘ladi”.

Bu yerda so‘zlovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri ayblov o‘rniga ritorik savol (“Balki...?”) dan foydalanadi, biroq undan keyingi umumlashtirilgan bayonot savolni aslida ritorik ayblovga aylantiradi. “Balki” modal so‘zi so‘zlovchiga keyinchalik “men shunchaki taxmin qildim” deyish imkoniyatini beruvchi himoya vazifasini bajaradi.

c) va d) bandlar biri ikkinchisiga javob tariqasida yozilgan. Ular internet muloqotida yashirin intensiyaning dialogik-kollektiv tarzda, izohlar zanjiri orqali bosqichma-bosqich kuchayish hodisasini ham namoyish etadi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, kinoyaviy intensiya ko‘pincha ortiqcha darajadagi maqtov leksikasi, **“🙂”, “😉”** kabi emojilar, undov belgisining takrorlanishi va gap oxiridagi sun’iy pauza (ko‘p nuqta) orqali ifodalanadi. Kontekstsiz o‘qilganda bunday jumlalar ijobiy baho sifatida qabul qilinishi mumkin, biroq muloqot vaziyati, masalan, oldingi xabarlar zanjiri haqiqiy, salbiy mazmunni ochib beradi.

2. Bilvosita iltimos-talab intensiyasi.

“Telegram”dagi “Xushnudbek – o‘ta shaxsiy” kanalida berilgan Ulug‘bek rasadxonasida svet o‘chib qolgani, turistlarning telefon yorug‘idan foydalanib rasadxonani ko‘zdan kechirishlari haqidagi post ostidagi sharh:

“Ulug‘bek davrini his qib ko‘rsin turistlar degandirde, u paytlar ham svet bo‘lmaganu 😂”.

Bu misolda tashkiliy nosozlik (elektr uzilishi) go‘yoki ataylab qilingan, ijobiy niyatli qaror sifatida talqin qilinadi. “Degandir-de” so‘z shakli orqali tarixiy davr bilan hozirgi voqeani solishtirish bilan masala kulgili shaklga keltiriladi, kulgu emojisi (😂) esa matnni jiddiy da’vo emasdek ko‘rsatadi.

Bu turda so‘zlovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri buyruq shaklidan qochib, savol yoki bayonot shaklida yashirin talab bildiradi.

“Bugun guruhda hech kim vazifa yubormadi shekilli” (= vazifani yuboring).

“Xona juda sovuq ekan-a?” (= isitgichni yoqing).

“Kimdir eshikni yopib ketishni unutgan, shekilli” (= eshikni yoping).

Bunday konstruksiyalarda modal so‘zlar (“shekilli”, “-a?”), umumlashtiruvchi shakllar (“kimdir”, “hech kim”, “- ish”) va bevosita murojaatning yo‘qligi xarakterlidir. Bu adresantga o‘z manfaatlarini himoya qilishga yordam beradigan pragmatik strategiya sifatida baholanadi.

3. Tanqidiy-baholovchi intensiya. Bu turdagi intensiyada ochiq tanqiddan qochish maqsadida fikr metafora, taqqoslash yoki ritorik savol shaklida beriladi.

“Telegram”dagi “School time CLASSMATES” guruhida yozilgan xabarnoma:

“Guruhga rasmlarni kim tashlagan ekan, topa olmayapman-a? 🤔*”.*

So‘zlovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri iltimos bildirmasdan, o‘z “nochorligi”ni bayon qilish orqali suhbatdoshni harakatga undaydi. So‘roq-taajjub yuklamasi (“-a?”) va o‘ylanish emojisi murojaatni “o‘z-o‘zi bilan gaplashish” qiyofasida taqdim etadi.

Bundan tashqari, quyidagi gaplarda ham tanqidiy-baholovchi intensiya ko‘zga tashlanadi:

“Ba’zilar hali ham eski usulda ishlayotganini ko‘rib hayron bo‘lasan”.

“Har kim o‘zicha “mutaxassis” bo‘lib qolgan payt”.

Bunday intensiyada belgilash va gumon olmoshlari (“ba’zilar”, “har kim”, “kimdir”), umumlashtiruvchi konstruksiyalar va qo‘shtirnoq ichiga olingan so‘zlar orqali tanqid shakllantiriladi.

4. Yumoristik intensiya. Bu turda haqiqiy fikr yumor pardasi ostida yashiriladi, bu esa so‘zlovchiga javobgarlikdan chetlanish imkonini beradi.

“Telegram”dagi talabalar guruhidan olingan xabar:

“*Bugun hemis tizimi ishlamay qoldi, imtihonlar qoldirilishi mumkin*”.

Mazkur xabarga bildirilgan javob: *“Bizda raqamlashtirish qanchalik zo‘r-a, hali ham tizim ochilmadi, zamonaviy universitetimizga ko‘z tegmasin* 🎓*”*

So‘zlovchi universitetning texnik infratuzilmasi va “raqamlashtirish” siyosatini amalda muvaffaqiyatsiz deb bilib, buni ochiq tanqid qilish o‘rniga, aksincha,“zamonaviylik” va “raqamlashtirish”ni haddan tashqari maqtash orqali norozilikni yashirin tarzda bildiradi.

- “Hali ham” ravishi – davomiy va takrorlanuvchi muammoni ta’kidlaydi, bu esa bir martalik nosozlik emas, balki tizimli kamchilik haqida yashirin da’vo bildiradi;

- “raqamlashtirish”, “zamonaviy universitet”, “faxrlanaman” – bu so‘zlar odatda rasmiy hisobot yoki reklama tilida ijobiy ma’noda ishlatiladi, ularning bu kontekstda qo‘llanilishi o‘zi kinoyaning asosiy signali hisoblanadi;

- Bitiruv qalpog‘i emojisi (🎓) – odatda ta’lim, muvaffaqiyat va yutuqni ifodalovchi ramziy belgi hisoblanadi. Biroq uning tizim ishlamayotgan vaziyatda qo‘llanilishi nomuvofiqlikni yuzaga keltirib, xabarning kinoyaviy mazmunini kuchaytiradi.

5. Manipulyativ intensiya. So‘zlovchi qabul qiluvchini muayyan harakatga undash maqsadida uning hissiy kechinmalariga ta’sir ko‘rsatadi.

“Telegram”dagi “Telegram_Yulduzlari” kanalidagi reklama posti:

“JOY SONI CHEKLANGAN! Hoziroq anketani to‘ldiring – kech qolsangiz, joy qolmasligi mumkin!”

Shoshilishga undash (vaqt cheklovi) va bosh harflar bilan kuchaytirish orqali “yo‘qotish qo‘rquvi” psixologik mexanizmi ishga tushiriladi.

6. Yashirin his-tuyg‘u intensiyasi. Bu turda so‘zlovchi haqiqiy kayfiyatini bevosita bildirmasdan, uni javob bermaslik, javobni kechiktirish yoki qisqa javoblar orqali ifodalaydi:

- uzun xabarga faqat *“Ha”* deb javob berish (nuqta bilan yakunlangan bir so‘zli javob) – norozilik yoki xafagarchilik signali;

- avvalgi xabarlarda faol emoji ishlatgan foydalanuvchining keyingi xabarlarida emojidan butunlay voz kechishi;

- javoblar orasidagi vaqt oralig‘ining sun’iy ravishda uzayishi (agar bu kontekstdan bilinsa).

Odatda barcha xabarlarga darhol, ko‘plab emoji bilan javob beradigan foydalanuvchi muhim voqea haqidagi uzun xabarga faqat *“Xabaring uchun rahmat”* deb hech qanday emojisiz javob beradi. Bu turning o‘ziga xosligi shundaki, intensiya qo‘shimcha belgi orqali emas, balki kutilgan belgining yo‘qligi orqali ifodalanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, onlayn muloqotda yashirin intensiyalarni ifodalashda grafik va nolisoniy vositalar (emoji, tinish belgilari, javob uzunligi va javob tezligi) bir xil darajada muhim pragmatik rol o‘ynaydi. Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, kinoyaviy va yumoristik niyatlar nisbatan tez-tez ishlatiladigan turlar bo‘lib, ochiq muloqot uslubiga xos edi, manipulyativ intensiya esa, asosan, reklama matnlarida uchraydi. Bu turdagi yashirin hissiyot, boshqalardan farqli o‘laroq, ko‘pincha alohida lisoniy vositalar orqali emas, balki muloqot uslubining o‘zgarishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu yashirin intensiya tahlilida nafaqat matnning o‘zini, balki uni oldingi muloqot konteksti bilan taqqoslashni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida tavsiflangan olti turdagi yashirin intensiya niyat yashiringan lingvistik mexanizmni ochib beradigan umumiy nazariy tasnifni ifodalaydi. Ekspert amaliyoti nuqtayi nazaridan savol turlicha qo‘yiladi: intensiya qanday huquqiy va ijtimoiy maqsadni ko‘zlaydi? Bu savolga javoban quyida to‘rtta toifa batafsil ko‘rib chiqiladi: chorlov, tahdid, diskreditatsiya va manipulyatsiya. Har bir toifa yuqoridagi oltita turdan qaysi biri asosiy lingvistik vosita va qaysi biri yordamchi ekanligini ko‘rsatadi.

Diskreditatsiya – “Birovning ishonchini yo‘qotmoq, kimningdir obro‘sini tushirmoq. II. Obro‘sizlantirmoq” [11. B. 394]. Muayyan shaxs, guruh, tashkilot yoki institutning obro‘-e’tiborini, ishonchliligini yoki qadr-qimmatini pasaytirishga qaratilgan, ammo to‘g‘ridan to‘g‘ri haqorat yoki tuhmat shaklida emas, balki bilvosita – kesatiq, umumlashtirish, taxmin yoki ayblov shaklida amalga oshiriladigan yashirin intensiya turi. Bu turdagi intensiya ekspertiza amaliyotida eng ko‘p uchraydigan va eng nozik farqlashni talab qiladigan kategoriya hisoblanadi. Chunki diskreditatsiya bilan ochiq, jamiyat uchun foydali tanqid o‘rtasidagi chegara ko‘pincha aynan lisoniy vositalar tahlili orqaligina aniqlanadi.

Diskreditatsiyaning yetakchi ifodalanish usuli kinoyaviy intensiya shaklida namoyon bo‘ladi. Yuqorida aniqlangan to‘rtta xususiy holat aynan diskreditatsiyaning ifodalanish shakllaridir. Masalan, quyidagi jumlada davlat organiga nisbatan ishonchsizlik dalilsiz xulosa orqali shakllantiriladi:

“Avval shunaqa xabar chiqarib pensiya yoshini oshiradi, ko‘rasizlar 😡”.

Quyidagi misolda esa ayblov muayyan shaxs yoki xatti-harakatga aniq yo‘naltirilmay, umumiy mazmunda ifodalanadi:

“Tubanlikni eng tubiga olib ketishmoqchi o‘zbek millatini”.

Bu yerda diskreditatsiyani yuzaga chiqarishda tanqidiy-baholovchi intensiyadan foydalanilgan.

Tahdid “[a. – do‘q qilish, qo‘rqitish] 1. Qo‘rqituv, do‘q, po‘pisa” [12. B. 41]. Tahdid adresatga yoki uchinchi shaxsga nisbatan jismoniy, moliyaviy, ijtimoiy yoki boshqa turdagi zarar yetkazish niyatini to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki shartli, metaforik shaklda bildiruvchi yashirin intensiya turi hisoblanadi.

Tahdid oldingi olti tur ichida to‘g‘ridan to‘g‘ri mos kelmaydigan, o‘ziga xos shakllariga ega: u shartli konstruksiya (“agar... bo‘lmasa”) va oqibatni ochiq aytmasdan, adresatning o‘ziga qoldiruvchi (tushunib olishiga) fe’llar (“bilasiz”, “ko‘rasiz”, “afsuslanasiz”) orqali amalga oshadi.

“Bu masalani hal qilmasangiz, keyin nima bo‘lishini o‘zingiz bilasiz”.

Amaliyotda tahdid ko‘pincha yumoristik intensiya niqobi ostida yumshatilgan holda uchraydi (masalan, “hazil qildim” deb keyinchalik inkor etish imkoniyatini saqlab qolish uchun) yoki tanqidiy-baholovchi intensiyaning kuchaytirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi, bunda noaniq adresat o‘rniga aniq shaxsga qaratilgan bashorat beriladi.

Chorlov – auditoriyani muayyan (ko‘pincha ijtimoiy ahamiyatga ega yoki huquqiy jihatdan nozik) harakatga – norozilik bildirishga, birlashishga, muayyan guruhga qarshi pozitsiya egallashga – undovchi, ammo to‘g‘ridan to‘g‘ri chaqiriq shaklida emas, balki bilvosita ifodalangan yashirin intensiya turi.

“Instagram” ijtimoiy tarmog‘ining “Saraxabarlar. rasmiy” kanalidagi video postga qoldirilgan fikr:

“Qachongacha shunga chidab yuraveramiz?”

Shaxsiy iltimosdan ijtimoiy chorlovga o‘tishda ikkita qo‘shimcha lisoniy belgi ishtirok etadi. Ko‘plik shaklidagi fe’llar (“chidaymiz”, “yuraveramiz”) so‘zlovchi bilan adresatni bitta guruhga (“biz”) birlashti-

radi va ritorik savol (“Qachongacha...?”) orqali javob shart emasligi, balki his-tuyg‘uga chaqiriq ekanligi bildiriladi.

Bunday gaplarda ritorik savollar, ellipsisli gaplar, ko‘plik shaklidagi fe’llar (“biz” strategiyasi), vaqt va o‘zgarish semantikasiga ega so‘zlardan (“vaqti keldi”, “endi bas”) foydalanish kuzatiladi.

Manipulyatsiya – adresatning mustaqil, ongli qaror qabul qilish imkoniyatini cheklab, uni hissiy bosim orqali muayyan xatti-harakatga undashga qaratilgan yashirin intensiya turi. “Manipulyatsiya ruhiy ta’sir ko‘rsatishning shakli bo‘lib, uning maqsadi insonning qadriyatlari va maqsadlarini yashirin metodlar yordamida o‘zgartirishga qaratiladi” [13. B. 59].

“Instagram” tarmog‘ining “Qalampir.uz” sahifasida berilgan “Hamma o‘zini oqlayapti” nomli video postiga qoldirilgan sharh:

“Toshkent bedarvoza. Xohlagan odam kelib xohlagan ishini qilib ketadi. Toshkent shu ahvolga kelib qolganiga qon yig‘layapti”.

Berilgan matn emotsional manipulyatsiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda so‘zlovchi ma’lumotlarni noaniq va biryoqlama bayon etish orqali adresatni voqelikni noto‘g‘ri talqin qilishga hamda asossiz xulosaga kelishga undaydi.

1. Aniq dalillarning keltirilmagani. Matnda statistika, sanalar, konkret misollar yo‘q. Bu o‘quvchini o‘z tasavvuriga tayanishga majbur qiladi va vaziyatni noxolis baholashiga olib keladi.

2. Emotsional ta’sir ko‘rsatish. “Toshkent qon yig‘layapti” – voqea-hodisa kuchli hissiy bo‘yoq bilan tasvirlanib, adresatda achinish, qayg‘u yoki xavotir kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Odam ratsional fikrdan ko‘ra ko‘proq his-tuyg‘uga tayanadi.

Manipulyatsiya ko‘pincha yolg‘iz ishlamaydi. Yumoristik intensiya bosimni yumshatib, tahdidli bo‘lmagan qiyofada taqdim etadi (masalan, reklama matnlaridagi hazilomuz ohang), emotiv-ekspressiv intensiya esa adresatga “hamma allaqachon harakat qilmoqda, sen esa hali ham javob bermayapsan” degan yashirin ijtimoiy bosimni yuklaydi.

“Zotan, manipulyatsiya bu ong ustidan hukmronlik o‘rnatish bo‘lib, unda inson ruhiyati, xatti-harakatlari va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatiladi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan, manipulyatsiyani inson tafakkuri ustidan nazorat o‘rnatish deya baholash mumkin” [14. B. 93]. Bizning fikrimizcha, manipulyatsiyaning eng muhim xususiyati shundaki, u adresatga ta’sir ko‘rsatish bilangina cheklanmay, uning axborotni anglash, baholash va unga munosabat bildirish jarayonini ham muayyan yo‘nalishga soladi. Bunda so‘zlovchi yoki axborot uzatuvchi shaxs ma’lumotlarni ma’lum maqsad asosida tanlaydi, ularni hissiy ta’sirdor shaklda ifodalaydi va shu orqali adresatning qarashlari hamda xulosalariga ta’sir ko‘rsatishga intiladi. Demak, manipulyativ ta’sirning samarasi adresatning axborotni qanday qabul qilishi va uni qay darajada mustaqil tahlil qila olishiga bevosita bog‘liq.

Yuqorida tahlil qilingan olti turdagi intensiyaning nutqiy ifodasi Graysning hamkorlik tamoyili va uning maksimalari nuqtayi nazaridan o‘rganilganda, ularning mazkur tamoyil talablariga munosabati alohida e’tiborni tortadi. Bu holat quyidagi fikrda ham o‘z ifodasini topgan: “ularning barchasi maksimalarning ongli ravishda buzilishi asosida yuzaga keladi” [3. B. 52]. Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim intensiyalarni ifodalashda so‘zlovchi axborotni to‘liq yetkazmaslik, fikrni noaniq bayon qilish yoki bilvosita ifodalash kabi usullardan foydalanadi. Bu esa nutqiy muloqotda hamkorlik tamoyili maksimalarining ataylab buzilishi holatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Xususan, kinoyaviy intensiyada sifat maksimasi (haqiqatga mos gapirish) buziladi, tanqidiy-baholovchi intensiyada usul maksimasi (aniq va ravon ifodalash) chetlab o‘tiladi, manipulyativ intensiyada esa miqdor maksimasi (kerakli darajada ma’lumot berish) qasddan ortiqcha yoki kamaytirilgan holda qo‘llaniladi. Bular Grays nazariyasining raqamli muloqot sharoitida ham amaliy kuchga ega ekanligini tasdiqlaydi, biroq shu bilan birga bir muhim farqni ham ochib beradi: an’anaviy og‘zaki muloqotdan farqli o‘laroq, internet muloqotida maksimalarning buzilishi ko‘pincha grafik vositalar (emoji, punktuatsiya) yordamida amalga oshiriladi. So‘zlovchi nafaqat mazmunni yashiradi, balki ayni paytda uning yashirin ekanligini ham ma’lum bir darajada bildirib qo‘yadi.

D.Kristal “raqamli nutq og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi “oraliq” tabiatga ega” ekanligini ta’kidlagan edi [6. B. 48]. Ushbu qarash mazkur tadqiqot natijalarida ham o‘z tasdiqini topdi: yashirin intensiyalarning aksariyati sof lisoniy vositalar bilan emas, balki lisoniy va grafik (emoji, tinish belgisi, harf katta-kichikligi) vositalarning uyg‘unlashgan holda ishlatilishi orqali yuzaga chiqdi. Bu an’anaviy og‘zaki nutqda intonatsiya va mimika bajaradigan vazifani internet muloqotida grafik belgilar o‘z zimmasiga olayotganini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, yashirin intensiyani faqat leksik-sintaktik darajada tahlil qilish yetarli emas, uni multimodal pragmatik hodisa sifatida o‘rganish zarurati yuzaga keladi.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, bu o‘zgarishlar shunchaki “til buzilishi” emas, balki ko‘pincha aynan pragmatik funksiyaga xizmat qiluvchi vositalar sifatida shakllanmoqda. Masalan, harflarni cho‘zib yozish yoki ortiqcha nuqta qo‘yish shunchaki uslubiy erkinlik emas, balki muayyan intensiyani (kinoya, kesatish, his-tuyg‘u) ifodalash vositasiga aylanmoqda.

XULOSA

Tadqiqotda onlayn muloqotda namoyon bo‘ladigan yashirin intensiyalarning tipologik xususiyatlari, ularni lisoniy va nolisoniy ifodalash usullari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarish uchun asos bo‘ldi.

Birinchidan, onlayn muloqotdagi yashirin intensiya oltita asosiy turga bo‘linadi: kinoyaviy, bilvosita iltimos-talab, tanqidiy-baholovchi, yumoristik, manipulyativ va emotiv-ekspressiv. Har bir tur o‘ziga xos pragmatik maqsadga xizmat qiladi. Bu maqsad o‘ziga xos lingvistik va grafik vositalar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, tadqiqot Greys tamoyili raqamli muloqotda amaliy kuchini saqlab qolishini tasdiqladi, ammo muhim farq yuzaga chiqdi: an’anaviy og‘zaki nutqdan farqli ravishda, onlayn muloqotdagi yashirin intensiya ko‘pincha grafik vositalar (emoji, tinish belgilari, harflarni takrorlash) orqali qo‘shimcha ishoralar yordamida ifodalanadi.

Uchinchidan, tadqiqotda o‘zbek tilidagi onlayn nutqning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Ilgari asosan leksik va grafik o‘zgarishlar sifatida qaralgan hodisalar (qisqartirishlar, orfografik normalardan chetga chiqishlar) ko‘pincha yashirin niyatni ifodalovchi aniq pragmatik funksiyani bajarishi aniqlandi. Ushbu natija o‘zbek tilidagi onlayn muloqotni pragmalingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan oltita turning umumiy nazariy tipologiyasi lingvistik ekspertiza amaliyoti nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqildi va chorlov, tahdid, diskreditatsiya va manipulyatsiya kabi huquqiy ahamiyatga ega turlarga bo‘lindi. Bular tadqiqotning nazariy natijalarini sud-lingvistik ekspertiza amaliyotiga qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, u nutqiy akt nazariyasi, implikaturalarni raqamli muloqot materiali asosida sinovdan o‘tkazish va ularni yangi multimodal kontekstda boyitish imkonini berdi. Shu bilan birga, tadqiqot cheklangan miqdordagi materiallar asosida olib borilganligi sababli kelajakdagi tadqiqotlarni korpusni kengaytirish, turli yosh va ijtimoiy guruhlarga xos xususiyatlarni qiyosiy o‘rganish va multimodal tahlil doirasida ovozli va video xabarlardagi yashirin intensiyaning ifodalanish usullarini aniqlash yo‘nalishlarida davom ettirish istiqbolli hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. *Austin J.L.* How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.

2. *Searle J.R*. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

3. *Grice H.P*. Logic and Conversation. Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – Pp. 41–58.

4. *Sperber D., Wilson D*. Relevance: Communication and Cognition. – Oxford: Blackwell, 1995. – 279 p.

5. *Сафаров Ш*. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 318 б.

6. *Crystal D*. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 304 p.

7. *Isroilova B.* Ijtimoiy omillarning tilga ta’siri (Virtual muloqot tahlili asosida): Filol. fan. b. fals. dokt… diss. – Andijon, 2024. – 153 b.

8. *Madaminova M*. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni: Filol. fan. b. fals. dokt… diss. – Andijon, 2022. – 140 b.

9. *Nuriddinova M*. Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi // Ilm-fan xabarnomasi. – 2025. – № 7. – B. 612–617.

10. *Searle J.R.* A Classification of Illocutionary Acts // Language in Society. – 1976. – Vol. 5. – No. 1. – Pp. 1–23.

11. *Ожегов С.И., Шведова Н.Ю.* Толковый словарь русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений. 4-е изд., дополненное. – Москва: Азбуковник, 1999. – 944 с.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд /А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007. – 606 б.

13. *Доценко Е.Л.* Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – Москва: Издательство МГУ, 1997. – 344 с.

14. *Ma’rufjonov A.* Media makonda manipulyatsiyaning nazariy metodologik tahlili // Devolopment and innovations in science international scientific-online conference. – Netherlands, 2024. – B. 93–96.

METHODS OF LINGUISTICALLY EXPRESSING HIDDEN INTENTIONS AND THEIR TYPOLOGY

(based on the example of correspondence on social media)

Baxtiyorjon R. Axmedov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 5(97). 118-126.

[1]Andijon State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekiston). E-mail: agsu_info@edu.uz.

Key words: hidden intention, virtual environment, speech act, implicature, discredit, threat, challenge, manipulation.

In modern society, Internet communication has become one of the most widespread forms of communication between people, becoming not only a means of information exchange, but also a field of complex pragmatic-communicative processes. A distinctive feature of communication in a virtual environment is that the speaker often expresses his intention not directly, but implicitly through various linguistic and non-linguistic means – using such methods as irony, metaphor, emoji, punctuation marks, silence. Therefore, the study of the concept of "hidden intention" and the forms of its manifestation in Internet communication is one of the urgent problems of modern pragmatics and text linguistics.

Sh.Safarov's research plays a special role in the formation and development of the pragmalinguistic direction in Uzbek linguistics. In his work "Pragmalinguistics", the scientist systematically analyzed categories such as speech act, presupposition, and implicature based on the material of the Uzbek language. In Uzbek linguistics, researchers such as B. Isroilova and M. Madaminova conducted work devoted to the study of phonetic, lexical-graphic features, syntactic specificity, emojis, and changes in spelling norms of the language of the Internet and social networks.

However, the analysis of existing research shows that a holistic typology of implicit intentions used in Internet communication, their differentiation by genre and context, as well as a comprehensive classification of linguistic and non-linguistic means expressing these intentions, has not yet been thoroughly studied as a separate object of research. In particular, this issue constitutes a practically unexplored gap based on the material of Internet discourse in the Uzbek language. This circumstance determines the relevance of this work.

During our study, the typological characteristics of hidden intentions manifested in Internet communication and their linguistic and non-linguistic expression methods were analyzed. The results of the study allowed us to formulate the following main conclusions.

Hidden intentions in Internet communication are divided into six main types: ironic, indirect request-demand, critical-evaluative, humorous-interactive, manipulative and emotional-expressive intentions. Each type serves a specific pragmatic purpose, and this purpose is realized through specific linguistic and graphic means.

The six-type general theoretical typology developed during the study was regrouped from the point of view of examination practice and divided into types of legal significance such as discredit, threat, challenge and manipulation. They serve as an important bridge that allows the theoretical results of the study to be applied to the practice of forensic linguistic examination.

The theoretical significance of the study is that it allowed testing speech act theory, implicatures on the basis of digital communication material and enriching them in a new multimodal context.

References:

1. Austin, J.L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press.

2. Searle, J.R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.

3. Grice, H.P. (1975). Logic and Conversation. Syntax and Semantics, Vol. 3: *Speech Acts*. New York: Academic Press. Pp. 41-58.

4. Sperber, D., Wilson, D. (1995). *Relevance: Communication and Cognition*. Oxford: Blackwell.

5. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. [Pragmalinguistics]. Tashkent.

6. Crystal, D. (2006). *Language and the Internet*. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press.

7. Isroilova, B. (2024). *Ijtimoiy omillarning tilga ta'siri (Virtual muloqot tahlili asosida)*. [The influence of social factors on language (based on virtual communication analysis)]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Andijan.

8. Madaminova, M. (2022). *Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni* [The role of syntactic units in the pragmatic description of the text]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Andijan.

9. Nuriddinova, M. (2025). Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi [Speech act theory or the expression of communicative intent]. *Ilm-fan xabarnomasi*. No. 7. Pp. 612–617.

10. Searle, J.R. (1976). A Classification of Illocutionary Acts. *Language in Society*. Vol. 5, No. 1. P. 1–23.

11. Ojegov, S.I., Shvedova N.Yu. (1999). Tolkovyj slovar' russkogo yazyka: 80000 slov i frazeologicheskih vyrazhenij [Explanatory Dictionary of the Russian Language: 80000 Words and Phraseological Expressions]. Moscow: Azbukovnik.

12. Madvaliev, A. (ed.) (2007). *O'zbek tilining izohli lug'ati* [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. Vol. 4. Tashkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

13. Docenko, E.L. (1997). *Psihologiya manipulyacii: fenomeny, mekhanizmy i zashchita* [The Psychology of Manipulation: Phenomena, Mechanisms, and Defenses]. Moscow: Izdatel'stvo MGU.

14. Ma'rufjonov, A. (2024). Media makonda manipulyatsiyaning nazariy metodologik tahlili [Theoretical methodological analysis of manipulation in the media space]. *Devolopment and innovations in science international scientific-online conference*. Netherlands. Pp. 93-96.

Muallif haqida ma'lumot:

AXMEDOV Baxtiyorjon Ravshanbek o'g'li – Andijon davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: abaxtiyor308@gmail.com